

INSON HUQUQ VA ERKINLARI

Tolibjonova Yodgora

*Toshkent Davlat Yuridik Universiteti qoshidagi
Akademik litsey 1-bosqich o'quvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson huquqlari va erkinligi hozirgi kundagi obro'si, inson sha'ni qadr-qimmati qanchalik ulug'ligi, ularning huquqlari oliy qadriyat sifatida davlatimiz tomonidan doimiy himoyada ekanligi, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar haqida mulohaza qilamiz.*

Kalit so'zlar: *Inson, huquq, erkinlik, konstitutsiya, deklaratsiya, ombudsman, prinsip. adolat, tenglik, ijtimoiy adolat.*

KIRISH

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda tizimli ravishda islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu islohotlarning bosh maqsadi, avvalambor, insonlarning qonunlardagi mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishdir. Qator islohotlar zamirida barcha masalalarga e'tibor qaratilmoqda. Barchamizga ma'lumki, insonning sha'ni, qadr- qimmati va boshqa huquqlari eng oliy qadriyat deb e'tirof etilgan. Adolat, tenglik, fuqorolarning huquqi va erkinliklaridan sud qarorlarisiz mahrum etib bo'lmasligi Konstitutsiyamizning 19-moddasida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu moddada "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdir. Fuqorolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas",-deb ko'rsatilgan.

Asosiy qonunimiz qabul qilinganidan o'tgan 26 yil mobaynida unga bir qancha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan bo'lib, bularning barchasi davlat hokimyatini tashkil etishda, faoliyat ko'rsatishda, fuqarolar ta'sirini kuchaytirish, fuqorolarning huquqlarini va erkinliklari muhofaza etishda odil sudlovning o'rnini mustahkamlashga qaratildi. Yurtimizda juda ko'plab millat va elatlar yashaydi. Ular har bir sohada yurtimiz ravnaqi uchun mehnat qilib kelmoqdalar.

Konstitutsiyamizning 18-moddasida ta'kidlanganidek, "O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolar bir-xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar". Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart. Bizning Konstitutsiyamiz huquq va erkinliklarimizning kafolatidir. Mamlakatimizda inson manfaatlari hamma narsadan ulug' degan tamoyil asosida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Aholi o'rtasida sayyor uchrashuvlar, xalq bilan yuzmayuz muloqotlar o'tkazilib, ularning orzu istaklari, turli muammolari o'z yechimini topdi. Albatta, xalqimizning bunday orzu istaklarning ro'yobi ularni yanada jiplashtirdi. Ertangi kunga bo'lgan ishonchini mustahkamladi

Yurtimizning har bir go'shasida 4 ta sektor faoliyat olib borib, ular hududdagi har bir xonadonga kirib, xonadon egalarini qiynayotgan muammolar, tashvishga solayotgan masalalarni tahlil etib zarur choralar ko'rmoqdalar. Bundan tashqari har bir tuman, shaharda Prezidentimiz tashabbusi bilan "Xalq qabulxona"lari tashkil etildi. Hozirgi kunda xalq qabulxonalari fuqarolar manfaatlarini ta'minlovchi ishonchli maskanga aylandi. Ilgari yurtimiz fuqarolari biror bir muammoni hal qilish uchun tashkilotlar eshigi tagida soatlab navbat kutar edilar. Fuqarolarning muammolarini yengillashtirish, xalqning dardini eshitish uchun Prezident virtual qabulxonalari joriy etilishi ham yurtimizda inson huquqlari, erkinliklari va burchlariga katta e'tibor berilayotganligining yorqin dalilidir. Darhaqiqat, fuqarolarimizga berilayotgan mana shunday huquq va erkinliklar farovon kelajagimizning poydevoridir.

ASOSIY QISM

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizning yaqin va uzoq istiqboldagi barqaror taraqqiyoti, xalqimiz farovon hayotining mustahkam huquqiy asosi va ishonchli kafolatidir. Bosh qomusimizda ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etilib, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlangan.

Xususan, inson manfaati har narsadan ustun qo'yilishi e'tirof etildi hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilandi. Bular, inson sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi, inson va davlat organlari o'rtasida yuzaga keladigan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta'sir choralari qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo'lishi kerakligi va boshqalarda o'z aksini topgan.

Shuningdek, insonning shaxsiy huquqlari va erkinliklari kafolati eng ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirildi. Jumladan, Konstitutsiyamizda hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi, hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yilishi hamda shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi qat'iy belgilangan.

Bundan tashqari, shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi konstitutsiya doirasida mustahkamlandi.

Bu kabi normalar shaxsning erkinligini cheklash bilan bog'liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shartligini bildirib, tergov va surishtiruv organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish yoki qamoqda saqlashga yo'l qo'ymaslikka qaratilgandir.

Konstitutsiyada shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerakligi ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik, sukut saqlash huquqi berildi. Ya'ni, xalqaro e'tirof etilgan "Miranda qoidasi" fuqarolarning o'z huquqlarini himoya qilishning zamonaviy usuli sifatida Asosiy qonunda o'z ifodasini topgan.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi

kerakligi qayd etilgan. Mazkur norma to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qoida bo‘lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta‘minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi mustahkamlanib, hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi. Bu qoidalar jinoiy ta‘qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o‘tkazish, uning sha‘ni va qadr-qimmatni kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo‘llanishining oldini oladi.

Yana bir muhim norma — agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat bo‘yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishini oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Ma‘lumki, insonning ajralmas huquqlardan biri – o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqidir. Bu huquq umum-e‘tirof etilgan xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham o‘z aksini topgan. Shu norma Konstitutsiyamizning 55-moddasida ham belgilanib, har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi e‘tirof etildi.

Ushbu qoidaning mazmun-mohiyati shundaki, fuqaro o‘z buzilgan huquq va erkinliklarini, o‘zgalar huquqlarini buzmaganda, mustaqil himoya qilish huquqiga ega. Bunda fuqaro tomonidan o‘zini himoya qilishda qo‘llaniladigan usullar yoki choralar qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan bo‘lishi lozim.

Shuningdek, fuqaro O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqliligi belgilangan. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalashini ta‘minlashning huquqiy kafolatidir. Bundan tashqari, shaxsga davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lganidan so‘ng, xalqaro organlarga murojaat etish huquqining berilayotganligi O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasida zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini samarali bajarishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ushbu qoidalar inson huquqlari ustuvorligini ta‘minlaydi, davlat idoralarining o‘z vazifalarini inson huquqlariga rioya qilgan holda amalga oshirish, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga xizmat qiladi. Ta‘kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasi inson huquq va erkinliklari Konstitutsiyamizda to‘liq o‘z aksini topgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Xususan, Konstitutsiyaning II bo‘limi “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlanadi. Ushbu bo‘lim 7 bobdan iborat bo‘lib, unda Umumiy qoidalar; Fuqarolik; Shaxsiy huquq va erkinliklar; Siyosiy huquqlar; Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar; Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari va Fuqarolarning burchlari belgilab berilgan.

Ayni kunda, Inson huquqlariga oid BMT tomonidan 70 ga yaqin, Yevropa Kengashi Bosh assambleyasi tomonidan 160 dan ziyod, YuNESKO tomonidan 70 dan ortiq, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tomonidan 30 dan ortiq xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilingan. Ma'lumki, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiya bilan 1948-yil 10-dekabrda "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" qabul qilingan. Aytish joizki, dunyodagi ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyalaridagi inson huquq va erkinliklarini kafolatlash aynan BMTning "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" rezolyutsiyasiga mos ravishda qabul qilingan. Ma'lumki, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" Muqaddimasida "Insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligini e'tiborga olib inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar so'z erkinligi va e'tiqod erkinligiga ega bo'ladigan hamda qo'rquv va muhtojlikdan holi sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning ezgu intilishidir deb e'lon qilingan.

E'tiborlisi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi normalar "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bilan bir xilligini ko'rish mumkin. Xususan, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 3-moddasi. "Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir" deb belgilangan. Shu asnoda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini 24-moddasida ham "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir" deb belgilangan. Shuningdek, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 5-moddasi: "Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak" deb belgilangan.

E'tibori jihatlardan biri esa aynan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasining ikkinchi qismini o'qiyamiz. "Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas" degan normani ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 9-moddasi, "Hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan. Aynan ushbu qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin. Unda "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas" deb belgilangan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki mamlakatimiz Konstitutsiyasi fuqarolarning huquq va erkinliklari borasida "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning asosiy g'oyalari va qoidalarini o'zida to'liq aks ettirgan.

Xulosa o'rnida aytganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining II bobi, 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi va fuqarolarning huquq va erkinliklari Konstitutsiya va Qonunlar bilan himoya qilinadi, O'zbekiston demokratik davlat deganimizda, chinakam ma'noda ko'z oldimizda bunda inson huquq va erkinliklarining to'la kafolatlanganligining guvohi bo'lamiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 2020-yilning 22-iyun kuni “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmon qabul qilindi. Inson huquqlari sohasida uzoq muddatli strategiyaning qabul qilinishi ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga, mamlakatning xalqaro maydondagi obro‘si yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bu hujjatda IHUDning g‘oyalari va prinsiplari o‘z ifodasini topgan.

Inson huquqlari va erkinliklarining rioya etish O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosidir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qayd etilgan huquq va erkinliklar: qonunlarning mazmuni va qo‘llanilishiga hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyat faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatadi; O‘zbekistonning har bir fuqarosiga, uning jinsi, irqi, millati, tili, diniy e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, maslagi, shaxsiy va ijtimoiy ahvolidan qati nazar ijtimoiy ahvolidan qati nazar, inson huquqlari va erkinliklarini buzilmasligi, sud yo‘li bilan himoya qilinishini kafolatlaydi. Konstitutsiya barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslangan holda, o‘zgalarning huquqlariga hurmat bilan qarash tamoyillarini, o‘zgalarning qonuniy manfaatlarini, huquq va erkinliklarini buzish hisobiga o‘z huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishga yo‘l qo‘ymaslikka, ijtimoiy adolat va hamjihatlikni ta‘minlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasida Inson va fuqaro huquq va erkinliklarini amalga oshirishga davlat kafolat beradi. O‘z navbatida respublika hududida yashovchi shaxslar Konstitutsiyada ta‘kidlangan huquq va erkinliklarga, xalqaro huquq me‘yorlariga rioya etish zarur. Umum-e‘tirof qilgan mazkur xalqaro me‘yoriy manbalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya va O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan yana bir qator xalqaro hujjatlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-may
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. –T.Adolat, 2018
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 maydagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Osiyo forumi ishtirokchilariga murojaatnomasi. http://uza.uz/ru/politics/uchastnikam_aziatskogo_foruma_popravamcheloveka-22-11-2018
5. Azbuka prepodavaniye prav cheloveka. –Jeneva, 2003.
6. Muminov A., Tillabaev M. Inson huquqlari. –T.: Adolat, 2013
7. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi konstitutsiyasi
8. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markaz faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risidagi Prezident qarori.
9. <https://www.oriens.uz/lex.uz>
10. <https://advance.lexis.com/api/permalink/beda1231-1e93-4eb9-b30f->